

Yoshlarning psixologik xavfsizligiga axborotning ta'siri

Tursunov Burxon Saydaxmatovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Kafedra mudiri P.f.b.f.d (PhD)

Fayziyeva Gulzoda Ulug‘bekovna,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura bosqichi “Psixologiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada "Psixologik va axborot xavfsizligi" tushunchasi va uning ko'p qirrali ekanligi, dolzarbligi ko'rib chiqiladi. Xavf omillari, xususan, psixologik va axborot xavfsizligi tushunchalari ta'lim muhiti xavfsizligiga asosiy tahdidlardan biri sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shaxsiy xavfsizlik, psixik xavfsizlik, psixologik xavfsizlik, axborot xavfsizligi, axborot-psixologik xavfsizlik.

Влияние информации на психологическую безопасность молодежи.

Аннотация: В статье рассматривается понятие "психологическая и информационная безопасность" и его многогранность, актуальность. Факторы риска, в частности понятия психологической и информационной безопасности, анализируются как одна из основных угроз безопасности образовательной среды.

Ключевые слова: личная безопасность, психическая безопасность, психологическая безопасность, информационная безопасность, информационно-психологическая безопасность.

The impact of information on the psychological safety of young people.

Abstract: The article discusses the concept of "psychological and information security" and its versatility and relevance. Risk factors, in particular the concepts of psychological and information security, are analyzed as one of the main threats to the security of the educational environment.

Keywords: personal safety, mental safety, psychological safety, information security, information and psychological security.

Xozirgi kunda jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta'limni rivojlanishini “Media” (ya'ni: televidenie, radio, kinomatografiya, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari) siz tasavvur qilish qiyin. Axborot makonini globallasuvi va uning “Ochiqligi” zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, konsepsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda. Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilish amalda qiyin bo'lib bormoqda. Axborotning bunday xilma-xilligi ta'sirida talaba yoshlarning mustaqil ravishda tafakkur qilishi muammosi, uning qarashlarini, qadryatlarini va ideallarini shakllanishi masalalari yoshlar ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqozo etmoqda.

Bugun biz axborotni kompyuter texnologiyalaridan ko'proq qabul qilyapmiz. Kompyuter texnologiyalarining internet mo'jizasi dunyoni yagona axborot maydoniga aylantirdi. Biz uning ijobiy tomonlarini ham, kamchiliklari borligini ham angladik. Salbiy tomonlaridan biri "axborot inqirozi" ko'rinishida ham namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Oila ushbu "axborot hujumi" ga qarshi immunitetga ega bo'lgani kabi, yosh avlod ongiga o'z Vataniga qilingan hujumlarga to'g'ri munosabatni singdirish juda katta ehtiyojga aylandi. Ushbu ijtimoiy hodisa ilmiy jihatdan o'rganilishi va uning maxfiy sohasi ta'lim muassasalarida yosh avlodga o'qitilishi bejiz emas. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov aytganidek, "Biz qurol bilan emas, balki bolalarimizning hayoti va ongini yo'q qiladigan, kelajakka mutlaq ishonchini yo'qotadigan g'oyalar bilan kurashishimiz kerak. Bizning g'oyalarimiz kuchli bo'lishi kerak. Avvalo, biz hayotda sinovdan o'tgan o'z g'oyalarimizga ishonish yo'lidan borishni birinchi o'ringa qo'yishimiz kerak". [1,12-bet]. Aynan axborot hujumi, yoshlarni shaxsiy va psixologik xavfsizligiga salbiy ta'sir o'tkazayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Masalaning mohiyatini tushuntirishdan oldin, shaxsiy xavfsizlik va psixologik xavfsizlik tushunchalariga to'xtalamiz. Xo'sh, axborot o'zi nima, axborot xavfsizligi, shaxsiy xavfsizlik va psixologik xavfsizlik nima?



Axborot - inson sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha ma'lumotlarga aytiladi. Axborot lotincha informatio so'zidan olingan bo'lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma'lumot ma'nosini anglatadi[2, 72].

Axborot yozma, og'zaki, visual va audio aloqalar kabi turli xil aloqalar orqali uzatiladigan yoki tavsiflaydigan fakt, fikr yoki ma'lumot bo'lib, zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri[3, 23]. U mavjud tushunchalarni nima ekanligini va mohiyatini belgilaydi hamda insonlarga ko'rsatmalar, misollar va nazariyalarni tushunishga yordam beradi. Axborot turli xil tasvirlar, videolar, audio yozuvlar, tovushlar, mimikalar orqali qabul qilinadi. Axborot aniq va to'liqlik xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Ya'ni u o'rganilayotgan narsa yoki hodisani har tarafлама to'liq ifodalashi lozim. Aks holda insonlar uni notog'ri tushunishga va xato xulosa chiqarishga olib keladi[4,45].

Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'z vaqtida olingan to'g'ri va sifatli axborot turli sohalarда aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To'g'ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini beradi. Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g'arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo'lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma'lumotlar ham mavjudligidir. Ayniqsa, bunday ma'lumotlar internet tarmog'i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an'analарimizga, davlatchiligimizga zid bo'lgan axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto'g'ri yo'llarga kirib qolishiga sabab bo'layotganini ham uchratish mumkin.

Tarixdan ma'lumki axborotning muhimlik darajasi yoki xavfsizligi ilk sivilizatsiya paytida xam muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlabki aloqa vositalarining paydo bo'lishi bilan diplomatlar va harbiy arboblаr maxfiy yozishmalarni himoya qilish mexanizmlarini va uni soxtalashtirishga urinishlarni aniqlash usullarini ishlab chiqish zarurligini angladilar. Masalan, Yuliy Tsezar miloddan avvalgi 50-yillarda Tsezar shifrini ixtiro qilgan, bu uning maxfiy xabarlarini o'qimaganlar tomonidan o'qilishini oldini olish uchun mo'ljallangan edi[5,374]. Shunday bo'lsada, aksariyat hollarda, maxfiy yozishmalar bilan ishlash tartibini nazorat qilish orqali himoya ta'minlandi. Maxfiy xabarlar himoyalangan va faqat ishonchli shaxslar bilan

himoyalangan, himoyalangan xonalarda yoki mustahkam qutilarda saqlanishi uchun etiketlangan [6,448].

Pochtaning rivojlanishi bilan davlat tashkilotlari xatlarni ushlab, dekodlash, o'qish va qayta muhrlash paydo bo'la boshladi. Qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan, ulardan biri sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qish imkoniga ega bo'lmagan. Asrlar davomida bu san'at, sirli yozuv- jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidensiyalari va razvedka missiyalardan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan maxsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatadilar, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'iraydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. [7, 22-23]. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi.

Xavfsizlik tushunchasi hayotda asosan biror holat uchun xavf-xatar bo'lmagan yoki uning uchun ishonchli himoya o'rnatilganligini bildiradi. Axborot tizimlarida ham xuddi shunday ma'noni anglatgan bu ibora tizimning normal faoliyat ko'rsatishi, samarali ishlashi uchun barcha sharoitlar mavjudligi va tizimning turli xavf-xatarlardan ishonchli himoyalanganligini ta'minlaydi va uni aynan shu holat uchun axborot xavfsizligi deb ataladi[8,4].

Afsuski, bugungi kunda axborot xavfsizligi shaxsiy va psixologik xavfsizlikka ham xavf solayotganini kuzatishimiz mumkin.

I. A. Bayevning ta'rifiga ko'ra, "shaxsiy xavfsizlik" tushunchasi bu - shaxsning hayotiy manfaatlarini himoya qilish holati. Psixologik xavfsizlik-ta'lim muhitining holati, shaxsiy va ishonchli muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga hissa qo'shadigan o'zaro munosabatlardagi psixologik zo'ravonlikdan ozod bo'lishi, atrof-muhitning ahamiyatini va ruhiy salomatlikni ta'minlashning namoyon bo'lishi, jumladan unga yuqoridagi ishtirokchilarni yaratuvchi ham kiritilgan" [9, 172-bet].

Psixologik xavfsizlik psixik jarayonlarning ishlashiga normal sharoit yaratadi va insonning antisosial xatti-harakatlarini istisno qiladi. Insonning psixologik xavfsizligiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Ushbu omillardan biri va bugungi kunda eng muhimlaridan axborot xavfsizligi hisoblanadi. Hozirgi kunda jamiyat rivojlanishida insonga ta'sir qilishni ko'p mexanizmlar mavjud xox u reklama bo'lsin, saylov komissiyalari, tashviqot (propaganda) va boshqalar. Deyarli butun axborot oqimi biz sezmaydigan yoki kuzatmaydigan manipulyatsiyalar bilan



to'lgan. Yaqin-yaqingacha buning uchun OAV dan foydalanilgan bo'lsa, endilikda yanada global muammo va qulayroq usul-internetdir [10,4].

Yurtimizda haqiqatdan ham internet nazorat qilinmaganligi sababli, har kim oddiy harakatlar va so'rovlar kombinatsiyasidan foydalangan holda har qanday ma'lumotni topishi mumkin. Bularning barchasi bizning axborot va psixologik xavfsizligimizga juda kuchli ta'sir qiladi. Natijada ko'plab yoshlar jumladan talabalar ham ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlar bilan o'tkazishmoqda. Bu birinchi navbatda mustaqil ta'lim uchun ajratilishi kerak bo'lgan vaqtni bexudaga sarflash, berilgan topshiriqlarni bajarishni sifatini tushishi, ya'ni shunchaki tezroq internetda biror qiziqarli film yoki rolik tomosha qilishga shoshilish oqibatida vazifalarni ko'r-ko'rona yakunlash, yoki o'qituvchi maruzasini tinglash o'rniga orqa o'rindiqda internet tarmog'iga bog'lanib mashg'ulotni o'tkazib yuborishday salbiy oqibatlarni xam keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari ko'plab talaba-yoshlar turli notog'ri propaganda ta'sirida, ta'qiqlangan saytlar, kanallar ko'rish va kirish natijasi bilib-bilmay notog'ri oqimlarga kirib qolish xolatlari ko'p uchramoqda. Chet elda katta pul topishni, xorijda ish va o'qishga olib kirib qo'yishni va'da qilib ayni gulday o'smir yoshida firibgarlar tuzog'iga tushib qolayotgan yoshlar ham kam emas.

Xulosa qilib aytganda, axborot-psixologik xavfsizlik-bu psixikaga bevosita ta'sir qilish orqali o'z e'tiqodlari, muqaddas ideallari va e'tiqodlaridan mahrum bo'lgan buzg'unchi g'oyalardan himoya. Shunday qilib, birinchi navbatda axborot va psixologik xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning bilan bog'liq daxlsizlik, millat va milliy qadriyatlar, shu jumladan urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros bilan uzluksizlik bog'liqdir. Axborot va psixologik ta'sirga berilmaslik uchun quyidagilar zarur: tanqidiy fikrlash, olingan ma'lumotni filtrlash, o'zini o'zi anglaydigan, yetuk, barqaror o'zini o'zi qadrlaydigan shaxs bo'lishi, axborot va psixologik xavfsizlik bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lish kerak. Afsuski, o'smirlik davrida bu mezonlar kamdan-kam uchraydi, chunki bu yoshdagi yetakchi faoliyat o'smirning tengdoshlari fikriga bog'liqligini, ma'lumot guruh tomonidan tan olinishi zarurligini nazarda tutadi. O'smirlik davrida o'z-o'zini hurmat qilish o'zgaradi, chunki bu davrning asosiy yangi shakllanishi o'zini o'zi anglaydigan shaxs va ongli o'zini o'zi anglashdir.

Shuning uchun o'smirlik internetga qaramlik, shaxsiyatni virtualizatsiya qilish, ta'qib qilish va onlayn ta'qib qilish kabi turli xil axborot va psixologik tahdidlarga eng sezgir hisoblanadi. Yana bir sabab o'smirlarning ota-onalariga

dardlarini kamroq gapirishlari, ularni tashvishga soladigan vaziyatlarni ko‘proq tengdoshlariga aytishga moyilligi. Natijada, o‘smirlar aksariyati axborot va psixologik ta’sirlarning oldini olish va zararsizlantirish uchun zarur ma’lumotlarga ega emaslar, yoki talaba bo‘lgani uchun yotoqxonada yoshlarning kattalar nazoratidan qarovsiz bo‘lishi ham muammoli vaziyatlarda yolg‘iz qolishi, stressli vaziyatlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali tengdoshlari bilan konflikt xolatlarga tushishi ham ularni psixologik va psixik hotirjamligiga xavf solish xolatlariga sabab bo‘lishini ham kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов, И. А. Мир и безопасность нашей Родины зависят от нашей силы, единства и непоколебимой воли нашего народа / И. А. Каримов. Текст: непосредственный // Узбекистан. 2004. С. 12.
2. А. Sattorov “Informatika va axborot texnologiyalari”
3. B. Boltayev, A. Azatov, S. Rahmonqulova “Informatika va axborot texnologiyalari”
4. Young K. Internet addiction: the emergence of a new clinical disorder // Cyber Psychology & Behaviour, 1998, vol. 1, pp 237-244
5. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
6. Гай Светоний Транквилл. Книга первая // Жизнь двенадцати цезарей = De vita XII caesarum : [пер. с лат.] / перевод Гаспаров М.. — М. : Издательство «Наука», 1964. — 374 с. — (Литературные памятники).
7. Сингх, Саймон. Книга шифров : Тайная история шифров и их расшифровки. — М. : Издательство «АСТ», 2009. — 448 с. — ISBN 5-17-038477-7.
8. Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti, “Temir yo‘l transportida axborot tizimlari” kafedrasi, Axborot xavfsizligi va axborotni himoyalash fani bo‘yicha, Ma’ruza matni. Tuzuvchi: Ibragimov R. TOSHKENT – 2018
9. Баева, И. А. Психологическая безопасность в образовании / И. А. Баева. Психологическая безопасность в образовании. Санкт-Петербург: Союз, 2002. 172 с. Текст: непосредственный.
10. «Тольяттинский государственный университет» Гуманитарно-педагогический институт, МАГИСТЕРСКАЯ ДИССЕРТАЦИЯ С.С.

Румянцева ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
ПОДРОСТКОВ В СЕТИ ИНТЕРНЕТ, Тольятти 2019



Research Science and
Innovation House

